

**OLIY TA'LIM TALABALARINI NATYURMORT
KOMPOZITSIYASINI ISHLASHGA
O'RGATISHNING KREATIV TEXNOLOGIYALARI**

Xolmurodova Dilnoza Qushaq qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola tasviriy san'at janrlaridan biri bo'lmish natyurmort janrini oliy ta'lim talabalariga o'rgatish jarayoni haqida fikr mulohaza yuritadi hamda natyurmort kompozitsiyasini ishlashga o'rgatishning kreativ texnologiyalari va usullari, qog'oz yuzasida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat bilan to'g'ri tasvirlash uchun, tasviriy malakani mukammal egallash va uni amaliyotda qo'llash, naturaga, shuningdek xotira va tasavvurga asoslanib rasm chizishni o'rgatish haqida keng ma'lumotlar yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, natyurmort, kompozitsiya, pedagog, rang, mazmun, mashg'ulot, moxiyat, talaba, nazariy bilim, amaliyot, rassom, xotira, texnologiya, ijod, tasvir, namuna, asar.*

**ТВОРЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ
СТУДЕНТОВ ВУЗОВ РАБОТЕ НАД КОМПОЗИЦИЕЙ
НАТЮРМОРТА**

Аннотация: *В данной статье размышляется процесс обучения студентов высших учебных заведений натюрморту, одному из жанров изобразительного искусства, а также творческие технологии и методы обучения композиции натюрморта, оригинальной форме предметов на бумаге с высоким мастерством. за правильное изображение, совершенное владение изобразительным мастерством и его практическое применение, обширное обучение рисованию с натуры, а также памяти и воображения. информация светится.*

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, натюрморт, композиция, педагог, цвет, содержание, обучение, содержание, ученик, теоретические знания, практика, художник, память, технология, творчество, образ, образец, произведение.*

**CREATIVE TECHNOLOGIES OF TEACHING
STUDENTS OF HIGHER EDUCATION
TO WORK ON STILL LIFE COMPOSITION**

Annotation: *This article discusses the process of teaching students of higher education to work on the still life genre, one of the genres of fine arts, and provides extensive information on creative technologies and methods of teaching still life composition, the ability to accurately depict the true form of objects on the surface of paper with high skill,*

mastering visual skills and applying them in practice, and teaching drawing based on nature, as well as memory and imagination.

Keywords: *Fine arts, still life, composition, teacher, color, content, practice, essence, student, theoretical knowledge, practice, artist, memory, technology, creativity, image, sample, work.*

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarni har tomonlama barkamol va yetuk qilib tarbiyalash jamiyatimizning o‘z oldiga qo‘ygan eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Davlatimiz yoshlarni qo‘llab quvvatlab, ularga ulkan imkoniyatlar eshigini ochayotganligi ham eng quvonarli holatdir. Chunki har bir yosh avlod ertangi kun poydevori va asoschisidir. Yoshlarimizga hozirda keng imkoniyatlar yaratilganligi bilan bir qatorda, ularning sifatli ta‘lim olishi uchun ham barcha shart-sharoitlar yetarli darajada. O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lidan borar ekan, bu yo‘lda har tomonlama barkamol, erkin shahslarni kamol toptirish hamda bu borada barcha sharoitlarni yaratish davlatimizning eng birinchi va muhim vazifasi bo‘lib turibdi. Shu boisdan ham ta‘lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Ayniqsa bugungi kunda san‘at sohasiga qaratilayotgan e‘tibor ham fikrimizning yaqqol misoli bo‘la oladi. San‘at turlari juda ham ko‘p, hozirgi kundagi eng nozik va nafis san‘at turlaridan biri bu tasviriy san‘atdir. Tasviriy san‘at, o‘quvchilarda borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlashni mukammal o‘zlashtirish, yosh rassomlarni tayyorlashdagi dastlabki qadam hisoblanadi. Qog‘oz yuzasida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat bilan, hamda to‘g‘ri tasvirlash uchun, tasviriy malakani mukammal egallash va uni amaliyotda qo‘llash, naturaga, shuningdek, xotira va tasavvurga asoslanib rasm chizishni o‘rganish zarur. Albatta, bunday ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun inson rassomlik qobiliyatiga ega bolishi va o‘z ustida uzluksiz va betinim ishlay olishi muhimdir. Tasviriy san‘atning asosiy vazifasi yoshlarda tasvirlash mahorat qirralarini o‘rganish natijasida yuzaga kelgan bilim va malakalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. U o‘quvchidan tasvirlash qonun-qoidalarini bilishni va ulardan to‘g‘ri foydalana olishni ko‘zda tutadi. Rasm chizishga o‘rgatish bu bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog‘liqdir. Narsani o‘ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o‘zaro solishtirish, jismlarning shakli, rangi, materiallik xususiyati bo‘yicha farqlash va boshqalar. Rasm chizish mashg‘ulotlari talaba yoshlarni e‘tiborli bo‘lishga, fikrlashga va jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o‘rgatishi lozim.

METADALOGIYA

Yoshlarni tasviriy san‘atga o‘rgatish jismlarni kenglikda kuzata bilishni o‘rgatish dan boshlanadi. Buning asosiy sababi, jismlarni to‘g‘ri tasvirlay olishdir. Realistik tasviriy san‘atda insonni o‘rab turuvchi shakl va jismlar tabiatda qanday mavjud bo‘lib, ularni insonning ko‘zi qanday qabul qilsa, shunday tasvirlanadi. Ya‘ni tasviriy san‘atda jism va buyumlarni tasvirlovchi Natyurmort janri fikrimizning yaqqol misolidir.

“**Natyurmort**”-(**nature-morte**) fransuzcha s‘oz bolib, jonsiz tabiat degan manoni anglatadi. Natyurmort XVII asrning boshlarida Gollandiyada paydo bo‘ladi va turli

mamlakatlarga tarqab XVIII asrda tasviriy san'atda mustaqil janrga aylanadi. Natyurmort mustaqil janr bo'lishi bilan bir qatorda mavzuli suratlardagi asarning mazmunini ochishga ham xizmat qiladi. Natyurmort ko'pincha uy-ro'zg'or buyum-lari, mehnat qurollari, meva va sabzavotlardan tuziladi. Natyurmort san'ati insoniyat -ning maishiy hayotidagi zarur bo'lgan buyumlar dunyosini tasvirlaydi. Buning uchun o'quvchi ko'rib idrok etishning ba'zi xususiyatlarini egallashi, shaklni qog'oz yuzasida to'la hajmli etib uch o'lchamli tarzda ya'ni bo'yi, eni, balandligini tasvirlash qoidalari va usullarini bilishini talab etadi. Tasviriy san'atning barcha turlari va janrlarida bo'lgani kabi, qalamtasvirga o'rgatish jarayoni ham mashg'ulotlarning oddiydan, murakkabga tartibda amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Bunda agar oldingi mashg'ulot o'quvchi tomonidan etarli o'zlashtirilmagan bo'lsa, keyinggi, yanada murakkabroq vazifalarni tushunish qiyin kechadi. Buning uchun yosh rassom taviriy san'atdagi mavjud qonun qoidalarga to'ia rioya qilishini talab etadi. Eng muhimi ushbu qoidalar yoshlarni tasviriy san'at sohasida tarbiyalashda ahamiyati katta.

Natyurmort san'atining ilk namunalari qadimgi Misr devorlariga ishlangan suratlarda, qadimgi Yunonistonning mozaikalarida uchratiladi. Xitoy san'atida X-XI asrlarda natyurmort mustaqil janr sifatida rivojlangan. O'sha davrda ijod qilgan Chjao Chan Suy Bo ajayib asarlar yaratgan. Yevropada natyurmort san'ati XVII-asrga kelib Gollandiyada, XVIII-asrga kelib esa Fransiya keng tarqaladi. Golland musavvirlaridan Piter Klass, Yan Van Geysum va fransiyalik Jan Batist Shardenlar natyurmort asarlarida rangtasvir san'atining nodir namunalari ko'ramiz. Rus musavvirlari I.Repin, I.Xruskiy, V.Serov, I.Mashkov va boshqalarning natyurmort asarlari namuna hisoblanadi. o'zbek musavvir-lari Yu.Yelizarov, R.Ahmedov, J.Umarbekov, A.Yunusov, S.Abdullayev, L.Salimjonovlar natyurmort janrida samarali ijod qilmoqdalar. Natyurmort o'zining mazmun mohiyatiga ko'ra tasvirlashning eng boshlang'ich asoslaridan boshlab, uning natura va oddiy natyurmort kompozitsiyasini yaratish bo'yicha talaba yoshlarga bilim va konikmalar beradi. Natyurmort janri mustaqil o'quv mashg'uloti sifatida borliqni haqqoniy tasvirlash, talaba yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik did va ehtiyojlarini tarbiyalashda cheksiz imkoniyatlarga ega bolgan oquv fani hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tekislikda uch o'lchamli jism yoki jismlar guruhini tasvirlash jarayonida, ularni qismlarga ajratib, alohida chizish mumkin emas. Ushbu usul malakasiz, yosh rassomga xos. Bunday qoida bo'yicha ishlansa, tasvirdagi jism alohida turli masshtabdagi qismlardan iborat bo'lib qoladi va ular bir-birlari bilan hech qachon bog'lanmaydi. Natijada tasvir naturaga o'xshamaydi. Rasm chizish ketma-ketligiga rioya etilmagan hollarda rassomning e'tibori bir joyga jamlanmaydi, maqsadga intilish hissi sustlashadi va passiv, ko'chirish holatiga o'tib qoladi. Shuning uchun bexato rasm chizish uchun asosiy metodik qoidalarga rioya etish kerak. Naturadan rasm chizish uchun obyektlar ketma-ketligi to'g'ri tanlanishi (oddiydan murakkabga o'tish tamoyilidan foydalanib), hamda o'quv maqsadiga javob berishi lozim. Shuningdek, rasm chizishni oddiy shakl va jismlardan, osondan qiyinga o'tib borish tartibida boshlash kerak. Har bir buyum o'zining hajmiga ega. Uning hajmi qirralari, balandligi, bo'yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to'g'ri

to‘rtburchaklardan iborat boisa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindr va boshqalar) tekis yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Yuqorida sanab o‘tilgan shakllar kontur chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Kontur chizig‘ining buyum shaklini namoyon etishda ahamiyati benihoyat katta. Buyumning tuzilishi, harakati, nisbatlari, uning qanday materialdan tuzilganligini va boshqalarni tasviriy ifodalashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi. Buyumning shakllari to‘g‘ri to‘rtburchaklardan iborat bo‘lsa (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmlarini bajarish to‘g‘ri chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Sferik shakllarning hajmlari va konturlari egri chiziqlardan iborat bo‘lsa, hajmlilik ellips, aylana ham da yarimdoira shakllar orqali amalga oshiriladi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash, uning qanday shaklga ega ekanligiga va uni to‘g‘ri tuslash orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan, kub hajmini to‘g‘ri tasvirlashda ko‘pincha o‘quvchilar xatolikka yo‘l qo‘yadilar. Kubning hajmini yorug‘ soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun uning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo‘rttirib ko‘rsatadilar. Bu esa mutlaqo noto‘g‘ri. Tabiatda esa qirrali buyumlar yuzalarining birbiridan tus jihatidan och va to‘qligi bilan belgilanadi. Faqat (kub yoki boshqa qirrali buyumlarda) soya qismidagi qirrasi yorug‘ qismidagi yuzaga yaqinroq yerida tus jihatdan kuchliroq ekanligi bilan xarakterlidir. Dumaloq shaklli buyumlarni hajmlarini ellips, aylana chiziqlar orqali bajariladi. Tekislikda uch o‘lchamli jism yoki jismlar guruhini tasvirlash jarayonida, ularni qismlarga ajratib, alohida chizish mumkin emas. Ushbu usul malakasiz, yosh rassomga xos. Bunday qoida bo‘yicha ishlansa, tasvirdagi jism alohida turli masshtabdagi qismlardan iborat bo‘lib qoladi va ular bir-birlari bilan hech qachon bog‘lanmaydi. Natijada tasvir naturaga o‘xshamaydi. Rasm chizish ketma-ketligiga rioya etilmagan hollarda rassomning e‘tibori bir joyga jamlanmaydi, maqsadga intilish hissi sustlashadi va passiv, ko‘chirish holatiga o‘tib qoladi. Shuning uchun bexato rasm chizish uchun asosiy metodik qoidalarga rioya etish kerak. Naturadan rasm chizish uchun obyektlar ketma-ketligi to‘g‘ri tanlanishi (oddiydan murakkabga o‘tish tamoyilidan foydalanib), hamda o‘quv maqsadiga javob berishi lozim. Shuningdek, rasm chizishni oddiy shakl va jismlardan, osondan qiyinga o‘tib borish tartibida boshlash kerak.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki tasviriy san‘at amaliy mashg‘ulotlari davomida egallangan bilim va malaka, uy vazifalarining bajarilishi davomida mustahkamlanadi. Chunki, uy vazifalari auditoriyadagi mashg‘ulotlarning davomidir. Uyda ishlash rassomda mustaqil fikrlash, shaxsiy qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Talaba mustaqil ish olib borishi davomida ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradi. Uy vazifalarini tekshirish chog‘ida pedagog namunali rasmlarni namoyish etadi. Jismning hajmli tasvirini chiza turib, avvalo uning konstruksiyasini o‘rganish va rasmning perspektiv tuzilishini tahlil etish kerak. Chizish davomida rassom ikki o‘lchamli tekis yuzani emas, balki kenglikni ko‘rishi va undagi jismlar joylashuvi va o‘lchamini perspektiva qoidalari asosida tasvirlay olishi muhimdir. Ish jarayonida jismlar haqidagi bilimimiz va ularning ko‘rinishini yodda tutishimiz kerak. Ma‘lumki, jismning hajmini bir tomondan ko‘rish mumkin emas.

Faqatgina jismning har bir qismini atrofda ko‘rib chiqib jismning xaqiqiy shaklini bilish mumkin. Jismlarning kenglikdagi ko‘rinishini tasavvur eta olish va anglash mahoratining natijasi, qo‘yilgan jismning haqqoniy tarzda tasvirlanishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.B.Boymetov.”Qalam tasvir”, o‘quv qo‘llanma.”ILM-ZIYO” nashriyoti. 2017-yil. Toshkent.
- 2.X.Muratov.”Qalam tasvir”, o‘quv qo‘llanma.”Ijod-print” nashriyoti.2020-yil. Toshkent.
- 3.U.Mamatov. O‘zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari.”Mumtoz so‘z” nashriyoti.2018-yil. Toshkent.
4. R.Xasanov. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi.”Fan” nashriyoti-2004-yil Toshkent.
5. B.Oripov. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalasi, didaktikasi va metodikasi.”Ilm-ziyo” nashriyoti. 2013-yil. Toshkent.
6. N.Abdullayev. San’at tarixi.1-tom. O‘qituvchi nashriyoti. 1986-yil. Toshkent.